UDK: 347.913(574) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a192**

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA MUNOSABATLARINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA UNING JAMIYAT MA’NAVIY RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

ПРАВОВАЯ ОСНОВА СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ РОЛЬ В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

LEGAL BASIS OF FAMILY RELATIONS IN NEW UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

G‘afurov Doniyor Oripovich[1]

[1]G‘afurov Doniyor Oripovich – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada Asrlar davomida musulmonlar hayotida oila qurish va ma’naviyatini shakllantirish shariat ahkomlariga qat’iy rioya qilgan holda davom etib kelganligi va bu masalaga alohida e’tibor qaratilganligi hamda oila farovonligi-milliy farovonlik asosi ekanligi haqida bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье констатируется, что семейное и духовное становление в жизни мусульман продолжалось в строгом соответствии с нормами шариата, этому вопросу уделялось особое внимание, а семейное благополучие является основой национального благополучия. существование.

Abstract

In this article, it is stated that family building and spiritual formation in the life of Muslims has continued in strict compliance with Sharia rules, and special attention has been paid to this issue, and that family well-being is the basis of national well-being.

Kalit so‘zlar: *Oila, inson qadri, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *семя, человеческая сенность, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелост.*

Key words: *Family, human value, education, science, education, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

XXI asrga kelib, dunyo makonida jahon dinlari va konfessiyalarning mamlakatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda, shaxs va jamiyat aloqalari rivojlanishida, shu jumladan, oila munosabatlari madaniyatida jonlanish kuzatilmoqda. Xususan, islom dinining oila, shaxs va jamiyatda tutgan o‘rni, funksiyalari barchani qiziqtirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”[22], dedi. 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi bo‘ldi. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan yana muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Islom manbalari asosida oila munosabatlari madaniyati shakllanishining huquqiy va axloqiy asoslari tahlil qilinadi. Bunda Qur’oni karim, hadisi sharif va shariat ahkomlarida oila madaniyati mazmunini tashkil etgan va tarixiy jarayonda musulmonlar hayotida tatbiq etilgan jihatlari, uning ba’zi normalari hozirgacha davom etayotganligiga e’tibor qaratiladi, ayni vaqtda, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy rivoji bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Oilaning islom manbalari

[22] Mirziyoev Sh.M. Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida nutq // Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B.28.

asosida tarixiy jarayonda kishilarning turmush tarzi, jamiyatning ijtimoiy axloqiy asoslarida tutgan o‘rni va ular turli sharoitda qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Oila munosabatlari madaniyatini rivojlantirishning tashkiliy, nazariy va amaliy jihatlari davlat qonunlari asosida bo‘lishi bilan bir vaqtda milliy va diniy qadriyatlarning mazkur jarayondagi ta’siri ilmiy tahlil qilinadi.

Har bir jamiyat o‘ziga xos oila shakllarini, oilaviy munosabatlar tizimi mezonlarini o‘rnatgan. Dastavval, yovvoyilik bosqichida guruhiy oila, varvarlik ijtimoiy tuzumda juft oila, jamiyatning keyingi taraqqiyoti davrida monogamik oilaga o‘tish davri boshlangan. Bu munosabatlar tarixan shakllanib, takomillashib borishi tadriji insoniyatda otalik, onalik burchini ma’naviy anglash madaniy jarayonining naqadar uzoq davom etganini ko‘rsatadi. Zero, bugungi oila, uning madaniy, ma’naviy, huquqiy asoslari uzoq tarixiy davrlarda yuz bergan ijtimoiy iqtisodiy, ma’naviy jarayonlarning natijasidir. Demak, oila, uning mohiyati, jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o‘rnini o‘rganish bu muammoga oid bo‘lgan ko‘plab tushunchalarni mustaqil tahlil etishni talab qiladi. E’tibor berish kerak bo‘lgan muammolardan biri oilaviy munosabatlarga asos bo‘lgan nikohning ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy, huquqiy va diniy asoslarini o‘rganishdir. Nikoh oila shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy marosim emas, balki oila qurayotgan erkak va ayolning munosabati, burchi va mas’uliyatini belgilaydigan zaruriy tadbir, ijtimoiy hodisa hamdir.

Huquqshunos olim F. Otaxo‘jaevning yozishicha, nikoh-erkak bilan ayol o‘rtasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi, ma’qullanishini huquqiy, axloqiy jihatdan belgilaydigan marosim. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlarni tartibga solib turadi. Nikoh jinsiy ehtirosni ma’naviy maxfiylik pardasiga o‘raydi[23], er-xotin orasidagi tabiiy munosabatlarga axloqiy, ma’naviy go‘zallik baxsh etadi. Qur’oni karim oyatlarida keltirilgan taqiqlar oila munosabatlari madaniyatini shakllantirishga asos bo‘ldi. Islom dinining paydo bo‘lishi, arab feodal teokratik davlatning tashkil topishi, islom dini ko‘p mamlakatlarga, jumladan, O‘rta Osiyoga kirib kelishi oilaviy munosabatlarning yangi bosqichini shakllantirishga olib keldi. Agar islomgacha turli diniy ta’limotlar, xalq e’tiqod qilib kelgan odat va tartiblar orqali oila qurish amalga oshirilgan bo‘lsa, endilikda dastlab Qur’oni karim ko‘rsatmalari, shariat qoidalariga amal qilinadigan bo‘ldi. Bu holat oilaviy munosabatlarni axloq va huquq mezonlari asosida takomillashtirishning asosiy yo‘li bo‘lib qoldi. Asrlar davomida musulmonlar hayotida oila qurish va ma’naviyatini shakllantirish shariat ahkomlariga qat’iy rioya qilgan holda davom etdi. Islom huquqi, xususan, “Hidoya”da oila va nikoh masalasida katta ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan talablardan biri ayolning nikoh to‘g‘risidagi haq-huquqlarga ega ekanligi masalasidir: “Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo‘lishi shart qilinadi. Chunki, qiz bola faqat ilm bo‘lgandagina tasarruf eta oladi, bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo‘la olmaydi”[24]. Alloma B. Marg‘inoniyning mazkur fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham ahamiyatlidir. Zero, ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida huquqiy bilimga ega bo‘lish fuqarolik jamiyati va demokratik davlat barpo etishning zaruriyatiga aylanib bormoqda. “Hidoya”da oila va nikoh masalalari, oila munosabatlari madaniyatining asosiy mezonlari sifatida insof va diyonat, haromdan hazar, poklik kabi ezgu tushunchalar o‘z ifodasini topgan. Ta’kidlanishicha, “Nikohdan ko‘zda tutilgan maqsad iffatli va pokiza bo‘lib yurishdir”, “Oilali har bir ayol va erkakning pokligi va iffatliligining birinchi va birlamchi belgisi esa zinodan saqlanishdir. Zero, “zino” barcha dinlarda ham haromdir”. Marg‘inoniyning “Hidoya” asarida oila va nikoh masalasi, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar madaniyati muayyan qonun-qoidalarga tayangan holda oilani mustahkamlash, farzandlar tarbiyasiga e’tibor berish, shu bilan birga, oilaning axloqiy pokligi va halolligini ta’minlashdir. Qur’oni karim, hadislarda oila va nikoh masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, hadisda: “Uylaning, ko‘paying. Chunki tushgan bir bola bilan bo‘lsa ham qiyomat kuni o‘zga ummatlar oldida siz bilan faxrlangayman”[25], deyilgan. Farzandli ota-onalar to‘liq oila hisoblanadi. Ammo, oilaning burchi faqat farzand ko‘rish emas, balki uni jamiyatimizga kerakli qilib tarbiyalashdir. Farzandlar uchun ota-ona o‘rgatgan axloq-odob, halollik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarning o‘rni katta. Ahil, ma’naviy yetuk ota-onagina o‘z farzandiga to‘g‘ri tarbiya bera oladi. Farzand qalb rayhonasi, gulidir. Yoshlik chog‘ida ularni erkalab, ko‘pchilik huzur qiladi. Katta bo‘lganlarida yordamlaridan bahramand bo‘ladi. Inson vafot etganidan keyin nomai a’molimiz to‘xtaydi”. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): **“Banda vafot etgandan keyin undan uchta narsadan bo‘lak amallari uzilib**

[23] Otaxo‘jaev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. – Toshkent: Adolat, 1995. – B.20.
[24] Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. – Toshkent: Adolat, 2002. T.1. – B.675.
[25] Imom G‘azzoliy. Uylanish odobi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009. – B.5.

qoladi: 1. Sadaqai joriya (kishilarga foydasi tegsin deb, qilib ketilgan barcha ishlar); 2. Foydasi tegsin deb qoldirgan ilm; 3. Duo qilib turadigan solih farzand"[26]**,** dedilar. Shu sababli, nikohda yoshlarning ma'naviy mushtarakligi, yangi oila ixtiyoriy ravishda, sevgi va hurmat asosida qurilishi lozimligi masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Shuning uchun oila munosabatlari madaniyatining milliy va diniy qadriyatlar hamda davlat qonunlari bilan boshqarilishini keng targ'ib qilish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqoliga amal qilaylik. Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko'rsatsak, ishga, ilmga, kasb-u hunarga, ezgu fazilatlarga o'rgatsak, ular yo'lini ochib bersak, ertaga foydasi o'zimizga, jamiyatga tegadi. Aks holda, ular boshqalarning qo'lidagi qurolga aylanib qolishi hech gap emas. Yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan balo-qazolar xavf solib turgan paytda bolalarimiz tarbiyasiga beparvo qarashimiz mumkinmi o'zi? Bunday loyqaydlikdan g'arazli kuchlar foydalanib, sodda go'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda"[27]. Ota-ona farzandlar tarbiyasida teng huquqqa ega. Lekin farzandni tarbiyalashda otaning ham, onaning ham o'ziga xos betakror o'rni bor. Shu asosda oilaning ichki madaniyati shakllanib boradi. Qur'oni karimning "Baqara" surasida ota-onaning farzand tarbiyasidagi burchi xususida shunday deyiladi: "Onalar bolalarini to'la ikki yil emizadilar. Bu muddat emizishni kamoliga yetkazishini istovchilar uchundir. Ularni (onalarini) me'yorida oziqlantirish va kiyintirish otaning (erning) zimmasidadir. Hech kimga toqatidan ortiq mas'uliyat yuklamaydi. Bolalari tufayli ota ham, ona ham zarar ko'rmasin!"[28]. Otaning talabchanligi ona muloyimligini to'ldirib turadi. Mabodo, ota-onaning bir-birlari bilan munosabatlari buzilib, nikohlari bekor qilingan holda ham ular farzand tarbiyasidagi o'z mas'uliyatlaridan butunlay xalos bo'lmaydilar. Ota oilani iqtisodiy tomondan ta'minlovchi shaxsdir. Lekin oila qurgan ba'zi otalar har doim ham bunday mas'uliyatni his qilavermaydilar. Ota-bobolarimizning: "Tarbiya qiluvchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak", degan naqli bor. Bu naql katta ma'noga ega. Ota-onaning axloqi, odobi, yurish-turishi, o'zaro munosabatlari farzandlariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Xalqimiz: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bekorga aytmagan. Qur'oni karimda farzandlar ota-onaga mehribon bo'lishligi, ularning tarbiyasidan bahramand bo'lib, ularga shukr qilishi lozimligi ko'rsatilgan. Qur'oni karimda bu masala xususida shunday deyiladi: "Biz insonga ota-onasini (rozi qilishini) buyurdik. Onasi uni zaifalik ustiga zaiflik bilan (qornida) ko'tarib yurdi. Uni (ko'krakdan) ajratish muddati ikki yilda (bitar). (Biz insonga buyurdikki), "Sen menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir". Anglaniladiki, farzandlar doimo yaxshi yashagani uchun shukr qilishdan tashqari, ota-onaning tirikligiga, ularning sog'lig'iga ham shukr qilishi kerak. Bu holat farzandni ota-onaga mehr-shafqatli, ma'naviyatli bo'lishga chaqiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida nutq // Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B.28.
2. Otaxo'jaev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. – Toshkent: Adolat, 1995. – B.20.
3. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. – Toshkent: Adolat, 2002. T.1. – B.675.
4. Imom G'azzoliy. Uylanish odobi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009. – B.5.
5. Muhammad Ibn Ismoil Al Buxoriy. Al-Adab Al-Mufrad (Odob-axloqqa oid hadislar). – Toshkent:Toshkent islom universiteti, 2008. – B.71.
6. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – B.136.
7. Qur'oni Karim. Ma'nolarning tarjimasi va tafsiri muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007. – B.37.

[26] Muhammad Ibn Ismoil Al Buxoriy. Al-Adab Al-Mufrad (Odob-axloqqa oid hadislar). – Toshkent:Toshkent islom universiteti, 2008. – B.71.
[27] Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – B.136.
[28] Qur'oni Karim. Ma'nolarning tarjimasi va tafsiri muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007. – B.37.